



YOZMA NUTQ KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.075>

Islomova Madina Asqarovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Tillar va maktabgacha ta’lim” kafedrası katta o‘qituvchisi

Email: madinaislomova828@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozma nutq ko‘nikmasini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy strategiyalari tahlil qilinadi. Janíková tasnifi asosida yozishdan oldingi (rejalashtirish, fikr to‘plash) strategiyalar nemis tili o‘qitish kontekstida ko‘rib chiqildi. Protsessual yozish modeli grammatik aniqlik, leksik boylik, diskursiv koherensiya va ijodiy fikrlashni integrativ tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv yozma nutqni bosqichma-bosqich tashkil etish orqali matnning mantiqiy izchilligini ta‘minlaydi hamda til kompetensiyalarining kompleks shakllanishiga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: yozma nutq, kommunikativ kompetensiya, protsessual model, CEFR, diskursiv koherensiya, nemis tili metodikasi.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and practical strategies for developing writing skills. Based on Janíková's classification, pre-writing strategies (planning, idea generation) are examined in the context of German language teaching. The process-oriented writing model serves to develop grammatical accuracy, lexical richness, discursive coherence, and creative thinking in an integrative manner. This approach ensures the logical consistency of the text through step-by-step organization of written speech and facilitates the comprehensive formation of language competencies.

Keywords: writing skills, communicative competence, process model, CEFR, discourse coherence, German language methodology

KIRISH. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik bu – aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu – bilimsizlikdir!”⁵⁸ Shu kabi iboralarni avlodlarga kelajak avlodga yetkazish uchun ham yozma nutq zarur.

⁵⁸ "Nahj al-Balagha" (Hikmat) Toshkent islom universiteti nashriyoti" Toshkent 2005, B-113

Yozma nutq – bu fikrlarni yozma shaklda ifodalash jarayoni bo‘lib, u o‘z ichiga til, mantiq va ijodkorlikni oladi. Yozma nutqning asosiy vazifasi – fikrlarni aniq, ravon va lo‘nda ifodalashdir. Bu jarayon o‘quvchilarga o‘z fikrlarini samarali ravishda ifodalashga yordam beradi. Yozma nutq o‘z navbatida muloqotning bir shakli bo‘lib, o‘zaro tushunishni ta‘minlaydi. Yozma nutqning muhim jihatlaridan biri shundaki, u fikrlarni saqlash va uzatish imkoniyatini beradi, bu esa o‘quvchilarga o‘z fikrlarini kelajakda qayta ko‘rib chiqish va tahlil qilish imkonini yaratadi.

Chet tilini o‘rganuvchilar uchun yozma nutqni egallash bir qator ilmiy asoslangan kognitiv, lingvistik va ijtimoiy-kommunikativ faoliyat samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Janíková (2015) yozish strategiyalarini tayyorgarlik va jarayoniy strategiyalarga ajratadi: Tayyorgarlik: rejalashtirish, fikr to‘plash, muammoni aniqlash Jarayoniy: matnni tuzish, “o‘qish-yozish” va “kalit so‘zlar” usuli. Christiane Althoff va Stefan Schäfer metodikasi yozma nutqni rivojlantirishning amaliy usullarini taqdim etadi, shu jumladan interaktiv mashg‘ulotlar va individual ishlar. Christiane Althoff va Stefan Schäfer metodikasi yozma nutqni rivojlantirishning amaliy usullarini taqdim etadi, shu jumladan interaktiv mashg‘ulotlar va individual ishlar. Yo‘zma nutqni rivojlantirish talabalar uchun juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘rganayotgan xorijiy tilda o‘sha tilning haqiqiy vakili bilan erkin yo‘zisha oladigan bo‘lishi kerak. Yozma nutqning boshqa kompetensiyalar o‘zaro ta‘sir, ijtimoiy shakllar va xatolarni tuzatish o‘rtasidagi bog‘liqlik, ushbu mahoratni rivojlantirish strategiyalari ko‘rib chiqildi. Yozma nutqni o‘rganish nafaqat til o‘rganishda, balki umumiy kommunikatsiya va shaxsiy rivojlanishda ham katta ahamiyatga ega. Chet tilini o‘rganuvchilar uchun yozma nutqni egallash jarayoni ilmiy asoslangan kognitiv, lingvistik hamda ijtimoiy-kommunikativ faoliyat samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Yozma nutq ko‘nikmasini rivojlantirish talabalarning o‘rganilayotgan xorijiy tilda fikrini mantiqan, izchil va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalashiga xizmat qiladi. Mazkur kompetensiya o‘quvchining tilning autentik vakillari bilan samarali yozma muloqot olib borish imkoniyatini kengaytiradi. Yozma nutqning boshqa til kompetensiyalari bilan o‘zaro integratsiyasi, ijtimoiy-kommunikativ shakllar bilan bog‘liqligi hamda xatolarni aniqlash va tuzatish mexanizmlari ushbu ko‘nikmani shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar tizimli yondashuv asosida qo‘llanilganda, o‘quvchilarning refleksiv fikrlashi va mustaqil ishlash malakasi ham takomillashadi.

NATIJALAR

Yozma nutqni tizimli ravishda rivojlantirish o‘quvchilarning grammatik va leksik kompetensiyasini mustahkamlaydi hamda til birliklarining funksional qo‘llanishini chuqurroq anglashga yordam beradi.

CEFR mezonlariga muvofiq yozish ko‘nikmalari bosqichma-bosqich murakkablashadi va bu jarayon o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini integrativ tarzda shakllantiradi.

Yozma nutq diskursiv kompetensiyani rivojlantiradi, ya’ni fikrni mantiqiy-izchil va strukturaviy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish malakasini shakllantiradi.

Yozishni tizimli mashq qilish ravonlikni oshiradi, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi hamda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Interaktiv texnologiyalar va kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan yozish mashg‘ulotlari xalqaro baholash talablariga mos keladigan yozma va og‘zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yozma nutq kommunikativ kompetensiyaning diskursiv komponenti bo‘lib, tilshunoslik va pragmatik ko‘nikmalarni integratsiya qiladi.

MUHOKAMA

Demak, yozma nutqni o‘rganish nafaqat chet tilini egallashning ajralmas qismi, balki shaxsning umumiy kommunikativ salohiyati va intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayondir.

Yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish jarayoni o‘quvchilarning grammatik kompetensiyasini mustahkamlashda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Yozish faoliyati davomida o‘quvchilar nazariy jihatdan o‘zlashtirilgan grammatik qoidalarni amaliy nutqiy kontekstda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mazkur jarayon grammatik xatolarni kamaytirish, morfosintaktik tuzilmalarning funksional xususiyatlarini anglash hamda til birliklarini me’yoriy qo‘llash malakasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xususan, nemis tilida Konjunktiv I shaklining qo‘llanishi, zamon kategoriyalarining funksional farqlanishi, fe’llarning nominalizatsiyasi (otlashuvi) hamda fe’llar bilan birikuvchi predloglarning boshqaruv xususiyatlarini yozma kontekstda qo‘llash o‘quvchilarning grammatik sezgirligini oshiradi. Natijada, grammatik birliklarning kommunikativ vazifasi chuqurroq anglanadi va ularning real nutq jarayonidagi funksional ahamiyati mustahkamlanadi.

Yozma nutqni rivojlantirish jarayoni o‘quvchilarning leksik zahirasini boyitish va uni kontekstual jihatdan to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Yozish faoliyati o‘quvchini muayyan mavzu doirasida fikrni aniq, ekspressiv va uslubiy jihatdan mos tarzda ifodalash uchun kengaytirilgan leksik birliklardan foydalanishga undaydi.

Hozirgi kunda CEFR⁵⁹ (Common European Framework of Reference for Languages), ya’ni “Tillarni bilish darajasini baholashning Umumyevropa mezonlari (CEFR) tizimi xalqaro miqyosda til kompetensiyalarini aniqlash va sertifikatlashning asosiy mezoni sifatida keng

⁵⁹ CEFR (Chet tillarni o‘rganish, o‘qitish va baholash bo‘yicha Umumevropa kompetensiyalari) Yevropa Kengashi tomonidan 1989-1996-yillarda ishlab chiqilgan. Uning yakuniy rasmiy hujjati 2001-yilda chop etilgan va Yevropa Ittifoqi tomonidan til darajalarini baholashning xalqaro standarti sifatida foydalanish tavsiya etilgan. <https://grantlar.uz/blog/cefr/>

qo‘llanilmoqda. Mazkur tizim xalqaro ta‘lim dasturlariga kirishda, magistratura va doktorantura bosqichlarida tahsil olishda hamda ishga joylashish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. CEFR doirasida til bilish darajasi to‘rtta asosiy ko‘nikma asosida baholanadi: tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish.

Ushbu ko‘nikmalar bosqichma-bosqich rivojlantirilishi jarayonida leksik va grammatik murakkablik ham ortib boradi. Xususan, CEFR darajalariga muvofiq ravishda ehtimollikni ifodalovchi leksik birliklar ham semantik va uslubiy jihatdan differensiasiyalanadi. A1–A2 bosqichida o‘quvchilar oddiy va umumiy ehtimollikni bildiruvchi “vielleicht – balki” birlikidan foydalanishni o‘zlashtirish, B1–B2 darajasida “wahrscheinlich – ehtimol” kabi nisbatan aniqlik darajasi yuqoriroq bo‘lgan vositalarni qo‘llashni o‘rganadilar. C1–C2 bosqichida esa “eventuell – chamasi” kabi semantik noziklikka ega birliklarni kontekstga mos va uslubiy jihatdan maqsadga muvofiq qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi.

Mazkur jarayon o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini chuqurlashtiradi, uslubiy sezgirligini oshiradi hamda nutqiy aniqlikni ta‘minlaydi. Natijada, CEFR mezonlariga mos ravishda shakllantirilgan yozma va og‘zaki nutq kompetensiyasi xalqaro baholash talablariga javob beradigan darajaga yetadi.

Yozma nutq ko‘nikmasini rivojlantirish jarayoni talabalarda diskursiv kompetensiyani tarkib toptiradi, ya‘ni fikrni mantiqiy-izchil, strukturaviy va kreativ tarzda tizimlashtirish malakasini shakllantiradi. Matnning kompozitsion tuzilishi (kirish – asosiy qism – xulosa) hamda „Kohärenz“ (mantiqiy bog‘liqlik) tamoyiliga amal qilish o‘quvchilarga argumentlarni izchil rivojlantirish, sabab-oqibat munosabatlarini asoslash va yakuniy xulosaga mantiqan yetib borish imkonini beradi.

Mazkur kognitiv jarayon yozma nutq doirasida shakllangan bo‘lsa-da, u og‘zaki muloqotda ham transfer effektini namoyon etadi, ya‘ni diskursiv bog‘lanishning sifat jihatdan yaxshilanishiga olib keladi. Shunday qilib, yozma nutqni tizimli rivojlantirish til kompetensiyalarining integrativ shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik omil hisoblanadi. Yozishni tizimli mashq qilish orqali talabalarda ravonlik mahorati shakllanadi. Dastlabki bosqichlarda A1 darajasidagi sodda jumlar yozish orqali asosiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi, keyingi bosqichlarda esa murakkab fikrlarni spontan, erkin va izchil ifodalash qobiliyati rivojlantiriladi.

Yozma nutq mashqlari talabalarda ijodiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. O‘quvchilar fikrlarini nafaqat mantiqiy-grammatik to‘g‘rilik, balki original va kreativ uslubda ifodalashni o‘zlashtiradilar. Bu jarayon, ayniqsa, murakkab mavzular va insholarda yaqqol namoyon bo‘lib, yozma nutqda individual o‘ziga xoslikni shakllantiradi hamda mustaqil tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

Yozma nutq mashqlari talabalarni mustaqil ishlashga, o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashga va o‘zi o‘rgangan bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llashga undaydi. Bu ko‘nikmalar akademik yozuvda, shuningdek kundalik hayotda ham juda muhimdir.

Yozma nutqni o‘rganish jarayonini qanday yaxshilash mumkinligi haqida quidagi fikrlar keltirish mumkin

Yozma nutqni o‘rganish jarayonini yanada samarali qilish uchun quyidagi usullarni qo‘llash mumkin:

- Interaktiv o‘quv dasturlaridan foydalanish:

Yozma nutq mashqlarini yanada qiziqarli va samarali qilish uchun interaktiv texnologiyalarni, onlayn platformalar va mobil ilovalarni joriy etish zarur. Bu o‘quvchilarga nafaqat yozish mashqlarini bajarish, balki o‘z yozuvlarini baholash, bir-birining ishlarini tahlil qilish imkonini beradi. Misol uchun, *Duolingo*, *Quizlet* kabi ilovalar yordamida o‘quvchilarga har doim yangi mashqlar va interaktiv vazifalar taqdim etish mumkin.

- Yozma ishlarning individuallashtirilishi:

Yozma nutqni o‘rgatishda talabalarning shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olish muhimdir. Talabalar o‘z shaxsiy tajribalariga, qiziqishlariga va maqsadlariga asoslangan mashqlarni tayyorlash, ularning motivatsiyasini oshiradi. Masalan, o‘quvchilarga o‘z hayotiy tajribalari, sayohatlari yoki hobbilari haqida yozma ishlar qilishni tavsiya qilish, yozishni yanada qiziqarli qiladi.

Yozish jarayonida asosan fikrlarni tuzishda yoki stilistik jihatdan talqin qilishga yordam beradigan muayyan strategiyalarga tayanishimiz mumkin. Ushbu strategiyalarning batafsil ro‘yxati Janíkova tomonidan taqdim etilgan⁶⁰.

a) Yozishdan oldin hosil bo‘ladigan strategiyalar - nutqni tayyorlash, rejalashtirish va mashq qilish;

- Mavzu bo‘yicha iboralar/fikrlar/assotsiatsiyalar/g‘oyalar to‘plash
- Muammo haqida fikr yuritish
- yetishmayotgan ma‘lumotlarni qidirish va to‘ldirish

b) Yozma nutq jarayoni bilan chambarchas bog‘liq strategiyalar

- “Matnni takrorlash”:
- “O‘qish va yo‘zish”
- “Kalit so‘zlar yo‘rdamida yozish”

O‘tgan asrning yetmishinchi yillarga kelib “Kommunikativ kompetensiya” atamasi xorijiy tili o‘rgatish didaktik munozaraga sabab bo‘ldi, shu jarayonda kommunikativ yondashuvning pragmatik-funksional kontsepsiyasi shakllana bordi. Kommunikativ

⁶⁰ Janíková, Věra. Schreibstrategien im DaF-Unterricht. Brno: Masarykova univerzita, Filozofická fakulta, Katedra německého jazyka a literatury, 2015. S., 45-67.

yondashuv xorijiy til o‘rganayo‘tgan talabaga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu usulda o‘qitish jarayoni talabani markazga qo‘yadi va ularning individual rivojlanishini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. O‘qituvchi talabalarni qiziqtiradigan va chet tilida yo‘zma nutq yo‘rdamida muloqot qilish imkoniyatini taqdim etadigan mavzularni tanlashi lozim bo‘ladi.⁶¹ Chet tili darslari faqat o‘rganilayotgan tilda o‘tkazilishi kerak, shuningdek, o‘qituvchi haqiqiy til materiallaridan foydalanishi shart deb hisoblaymiz va bu jarayo‘nda barcha to‘rtta ko‘nikma amaliy mashg‘ulot davomida bir xil darajada ishlatilishi zarur. Bugungi kunda o‘qitish shakli emas, balki mazmuni muhim ahamiyatga ega; Christiane Althoff, Stefan Schäfer⁶² kabi nemis metodislarning bilim va tajribalariga tayansak, hozirda ravonlik aniqlikdan ustun hisoblanadi. Shuning uchun xatolarni tuzatish yangicha yondashuv bilan ko‘rib chiqilish bilan birga va ular endi tabiiy hodisa sifatida qabul qilina boshlandi. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi ham torta kompetensiyani rivojlantirishdir.⁶³

Vaqt o‘tishi bilan kommunikativ kompetentsiya zamonaviy chet tili darslarida mutlaq ustunlikka erishdi, chunki oldingi usullarda (audiolingual va audiovizual) kognitiv va ijodiy elementlar yo‘q edi va o‘quvchi mukammal to‘g‘rilikka erisha olishi deyarli imkonsiz edi. Rasmiy to‘g‘rilik degan tushuncha o‘z ahamiyatini yo‘qotdi va muloqot qilish qobiliyati asosiy o‘rin egalladi. Shuning uchun chet tili kundalik hayotda va professional sohalarda muloqot vositasi sifatida muhim rol o‘ynay boshladi. Lisoniy mahorat fokusi endi o‘zaro aloqalar jarayoniga qaratildi va bu faqat shaxsiy yozma yoki og‘zaki nutq maqsadlarini amalga oshirish bilan cheklanmadi. Xoriji til o‘rganish jarayo‘nida muloqot usullari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularga tinglovchi va ma‘ruzachi o‘rtasidagi hamkorlikni ta‘minlovchi harakatlar hamda muloqot maqsadlariga erishishga yordam beradigan yondashuvlarga asoslangan. Muloqotni davomiyligini saqlab qolish uchun funktsional ifodalar va fikrlarni oddiy va ravon tarzda ifodalash zarur, bu esa o‘zaro tushunishni ta‘minlaydi.⁶⁴

Piefo o‘zining “Kommunikativ kompetensiya ingliz tili darslarida asosiy o‘rganish maqsadi sifatida” nomli asarida kommunikativ kompetensiyani “Muloqot faoliyati” va “Muloqot ko‘nikmalari” sifatida ta‘riflaydi. Talabalar faol muloqot obyekti bo‘lishi va ular yo‘zma nutni faol ishlatishlari uchun ularga haqiqiy hamkor sifatida yondashilishi zarurligini ta‘kidlaydi. Globallashuv va axborot texnologiyalarining rivojlanishi munosabati bilan kommunikativ kompetensiyani qayta ko‘rib chiqish zarurati paydo bo‘la boshladi. Endi yo‘zma

⁶¹ Janíková, Věra. Prozessorientierter Schreibunterricht im DaF. Masaryk Universität Brno, 2012.

⁶² Christiane Althoff, Sternstunden Deutsch, Bevandere Ideen und Materialien zu den Kernthemen der Klassen 5/6 Verlag Westermann, Tübingen 2020.

⁶³ Stefan Schäfer, 55 Methoden Deutsch, einfach, kreativ, motivierend Verlag: Auer Verlag I.D.AAP LW, Sprache: Deutsch, Lehrmaterial Didaktik Unterricht / Didaktik EDUCATION / Teaching Methods & Materials / General 5. bis 13. Klasse Deutsch Lernmethoden Lernmethoden vermitteln Sekundarstufe I. 2010

⁶⁴ Vollmer, Helmut Johannes, Sprechen und Gesprächsführung, 1. Auflage, 6. Druck. Berlin: Cornelsen, S. 237-249.,2005

nutq qobiliyati ushbu yangilangan ta‘rifning markazida joylashgan bo‘lib, unga didaktik asosiy tushunchalar kirita boshlandi.⁶⁵

Canale (1983) va Canale/Swain (1980) kommunikativ kompetensiyani to‘rtta komponentga ajratganlar:⁶⁶

- Grammatik kompetensiya (til tizimi: leksika, grammatika, fonetika)
- Sotsiolingvistik kompetensiya (ijtimoiy vaziyatlarga moslashish)
- Diskursiv kompetensiya (matnlararo va matn ichidagi bog‘lanish)
- Strategik kompetensiya (muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish strategiyalari)

Ushbu model Umumiy Yevropa til o‘qitish doiralariga (CEFR) asos solgan bo‘lib, yozish ko‘nikmalari diskursiv va pragmatik komponentlarning muhim qismidir:

• Yozish – fikrlarni mantiqiy tuzilgan, koherensiya prinsipi asosida, vaziyatga mos matn shaklida ifodalash qobiliyatidir

Hozirgi CEFR uchta asosiy toifaga birlashtirilgan:

- Tilshunoslik ko‘nikmalari (leksik, fonologik, sintaktik resurslar)
- Ijtimoiy-lingvistik ko‘nikmalar (madaniy-sotsial kontekstga moslashish)
- Pragmatik ko‘nikmalar (nutqiy harakatlar va diskurs funksiyalari, yozish jarayoni)

Yozish ko‘nikmalarining o‘rni: CEFR doirasida yozish „uzoq muddatli matnlar yaratish“ (elaborated text) sifatida belgilangan bo‘lib, A1-C2 darajalarida murakkablik darajasi oshadi.

Yozma nutq kommunikativ kompetensiyaning diskursiv komponenti bo‘lib, tilshunoslik va pragmatik ko‘nikmalarni integratsiya qiladi.

Xulosa

Yozma nutq faqatgina grafik belgilar orqali fikr ifodalash texnikasi emas, balki shaxsning intellektual, kognitiv va kommunikativ salohiyatini rivojlantiruvchi murakkab pedagogik jarayondir. U tafakkur jarayonini tartibga soladi, mantiqiy izchillikni ta‘minlaydi va fikrni strukturaviy asosda bayon etishga o‘rgatadi. Shu jihatdan yozma nutq ko‘nikmasini rivojlantirish chet tili o‘qitish tizimining strategik va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida yozma nutqni shakllantirishda tayyorgarlik va jarayoniy bosqichlarning ahamiyati alohida namoyon bo‘ldi. Xususan, V. Janíková tomonidan taklif etilgan yozishdan oldingi strategiyalar — mavzu bo‘yicha g‘oyalarni to‘plash, rejalashtirish, assotsiativ fikrlash va muammoni tahlil qilish — o‘quvchilarda mazmuniy aniqlik va kompozitsion yaxlitlikni ta‘minlaydi. Jarayoniy strategiyalar, ya‘ni o‘qish va yozishni integratsiyalash, kalit so‘zlar asosida matn tuzish, matnni qayta ishlash va tahrirlash usullari esa nutqning izchilligini hamda stilistik mosligini mustahkamlaydi.

⁶⁵ Wolfgang H., Kommunikative Kompetenz und Diskursfähigkeit. Stuttgart: Kallmeyer, S. 70-75., 2010

⁶⁶ Heinrich G., Riemer C., Einführung in die Didaktik des Unterrichts Deutsch als Fremdsprache mit Videobeispielen. Band 1. Baltmannsweiler, S.516., 2012

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, protsessual (bosqichma-bosqich) yozish modeli o‘quvchilarning grammatik kompetensiyasini mustahkamlash bilan bir qatorda leksik boylikni oshiradi, diskursiv tafakkurni rivojlantiradi va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Yozma faoliyat davomida o‘quvchi grammatik qoidalarni amaliy kontekstda qo‘llaydi, semantik nozikliklarni anglaydi hamda nutqiy birliklarni funksional jihatdan to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasini egallaydi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari — grammatik, diskursiv va strategik kompetensiyalarning integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Kitoblar

1. Jalolov, J. J. *Chet til o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
2. Hoshimov, O‘.; Yoqubov, I. *Ingliz tili o‘qitish metodikasi*. Toshkent: Sharq, 2003.
3. Saydaliyev, Sh. S. *Chet til o‘qitish metodikasi (nemis tili misolida)*. Toshkent: Fan, 2015.
4. Mahkamov, N. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Tafakkur, 2017.
5. Abduqodirov, A. A. *Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. *Nahj al-Balagha (Hikmat)*. Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2005. B. 113.
7. Janíková, V. *Schreibstrategien im DaF-Unterricht*. Brno: Masarykova univerzita, 2015. S. 45–67.
8. Althoff, C. *Sternstunden Deutsch: Bewährte Ideen und Materialien zu den Kernthemen der Klassen 5/6*. Tübingen: Verlag Westermann, 2020. S. 223–226.
9. Schäfer, S. *55 Methoden Deutsch*. Donauwörth: Auer Verlag, 2010. S. 103.
10. Vollmer, H. J. *Sprechen und Gesprächsführung*. 1. Aufl., 6. Druck. Berlin: Cornelsen, 2005. S. 237–249.
11. Hallet, W. *Kommunikative Kompetenz und Diskursfähigkeit*. Stuttgart: Kallmeyer, 2010. S. 70–75.
12. Heinrich, G.; Riemer, C. *Einführung in die Didaktik des Unterrichts Deutsch als Fremdsprache mit Videobeispielen*. Band 1. Baltmannsweiler: Schneider Verlag Hohengehren, 2012. S. 516.

II. Jurnallardagi maqolalar

13. Xolbekov, A. X. “Chet tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati”. *Xalq ta’limi jurnali*, 2019, №3, 45–49-betlar.

14. To‘xtayeva, D. R. “Yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari”. *Pedagogik mahorat* jurnali, 2020, №4, 52–56-betlar.

15. Karimova, M. A. “CEFR mezonlari asosida yozma nutq kompetensiyasini baholash”. *Uzluksiz ta’lim* jurnali, 2021, №2, 33–37-betlar.

16. Raximov, B. N. “Chet tilini o‘qitishda diskursiv kompetensiyani shakllantirish masalalari”. *Ilm va ta’lim* ilmiy jurnali, 2022, №5, 60–64-betlar.